

Xizmatlar Sohasining Innovatsion Rivojlanishi Va Sohadagi Innovatsiya Faoliyatini Boshqarish

*Axmedov Jamoliddin Jo'rayevich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmatlar sohasining innovatsion rivojlanishi va sohadagi innovatsiya faoliyatini boshqarish bo'yicha xizmatlar sohasini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi, Milliy xizmatlar bozori rivojlanishigata'sir etuvchi omillar tahlili keltirilgan. Sohada innovatsiya jarayon-larini boshqarish samaradorligini oshirish zarurligi doirasida xizmatlarni yaratish faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan.


Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, innovatsion faoliyat, xizmatlar bozori, tashqi ob'ektiv omil, ichki ob'ektiv omil, xizmatlar sohasini rivojlantirish.

Kirish. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda yuz berayotgan innovatsiyalar tufayli tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan xizmatlar bozori va uning alohida segmentlaridagi rivojlanish darajasi yaratilayotgan va iste'molchilarga taklif etilayotgan xizmatlar hajmiga bo'lgan talabning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Xizmatlar bozorida to'lovga layoqatli talabning shakllanishiga xususiyatlari va ta'sir darajasi bilan bir-biridan farqlanuvchi turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar xizmatlar bozorida real talab va taklifning shakllanishi, muvozanatlashgan xizmatlar miqdorining yuzaga keltiradi. Umumiy iqtisodiy qonun hisoblangan talab va taklif qonuni xizmatlar bozoridagi o'zaro munosabatlarda ham o'z aksini topib, xizmatlar iste'moli va taklifining mutanosibligini ta'minlaydi. Mamlakatimizda milliy xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni 2 guruhga ajratib, quyidagi 1- rasmda ko'rib chiqishimiz mumkin. Xizmatlar sohasi murakkab, keng qamrovli soha hisoblanib, iqtisodiy faoliyatning bir qator yo'nalishlarini qamrab oladi va zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli sohalaridan biri sanaladi.

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqaruv jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni nazariy tahlil qilishda boshqaruv jarayoni obyekt sifatida xizmatlarni yaratishdan tortib, iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan faoliyatdagi innovatsiyalarni boshqarish munosabatlarini yuzaga keltiruvchi yuqorida asoslangan talab va taklifning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganildi.

¹ Jo'jaobod tumani 4 - sonli umumta'lim maktabi "Iqtisodiyot" fani o'qituvchisi



1-rasm. Milliy xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar (1)



Sohada innovatsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish zarurligi doirasida xizmatlarni yaratish faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tartibga solish masalasi dolzarbligi hamda ushbu masalani o'rganish borasida qator tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, ta'sir etuvchi omillar belgi va xususiyatlari bo'yicha chegaralanmagan va aniq tasnif holatida ishlab chiqilmagan. Aytib o'tish joizki, xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarga ega. Xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va yaratilayotgan xizmatlarga qo'shilayotgan yangi sifatlar (innovatsion o'zgarishlar) iste'molchilarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shakllanayotgan o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan. Shuning uchun xizmatlar sohasining rivojlanishi va xizmatlarni boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi har bir omilni alohida va muayyan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarda xizmatlar sohasi rivojlanishini belgilovchi omillar turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib, ular ma'lum darajada tizimlangan bo'lsa-da, omillarning to'liq tasnifi ularning tavsifi bilan berilmagan. Tadqiqotda omil sifatida xizmatlar sohasining rivojlanishi va intensivligiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoit, sabab yoki alohida ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda, ajratib olingan omillar belgi va xususiyatlari bo'yicha tasniflangan (2-jadval).

2-jadval Xizmatlar sohasini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi (2)

Tasnif belgisi	Omil turi	Omil tavsifi
Boshqarilish darajasi bo'yicha	Tashqi obyektiv omillar	Xizmatlarni yaratish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar, fan va texnika taraqqiyotining o'sib borayotgan ta'siri, iqtisodiyotdagi global iqtisodiy o'zgarishlar
	Tashqi sub'yektiv omillar	Davlatning xizmatlar sohasini rivojlantirish borasidagi siyosati, iqtisodiyot tarmoq va sohalarining rivojlanishidagi o'zgarishlar, aniq xizmatlar bozorida raqobat kurashining xususiyatlari, xizmatlar iste'molchilari talablarining o'zgarishi, jamiyatdagi ma'muriy boshqaruv tizimi xususiyatlari va korrupsiya darajasi
	Boshqariladigan ichki omillar	Ilmiy-texnik, texnologik, malakali mehnat, moliyaviy va axborot resurslari, xodimlar motivatsiyasi va boshqalar
Ta'sir ko'rsatish muddati bo'yicha	Uzoq davr davomida ta'sir etuvchi omillar	Globalashuv, davlatning iqtisodiyot servislashuvi yo'nalishidagi siyosatining samaradorligi, iqtisodiy o'sishning uzoq muddat davom etuvchi siklik tendensiyalari, aholi turmush farovonligi darajasi va boshqalar
	Qisqa muddat davomida ta'sir etuvchi omillar	Xizmatlarga bo'lgan bozor talabining xizmatlarning alohida turlariga nisbatan o'zgarishi, qisqa muddatli ustunliklarga ega bo'lish va boshqalar
Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar rivojlanishiga ta'sir darajasi bo'yicha	Asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, xizmatlarni yaratuvchi korxonalar rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
	Sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillar	
	O'zgarmas ta'sir ko'rsatuvchi omillar	



Shakllanish manbasi bo'yicha	Texnologik omillar	Texnologik salohiyatni shakllantiruvchi omillar
	Tashkiliy-boshqaruv omillari	Boshqaruvchilarning boshqaruv qobiliatlari va kompetentligi, ularning xizmatlarni yaratish va yetkazib berish jarayoni uchun samarali boshqaruv tizimini yarataolishi
	Iqtisodiy omillar	Xizmatlar sohasi korxonalarining asosiy faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlari va salohiyati
	Ijtimoiy omillar	Ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-ta'limiy, ijtimoiy-ruxiy omillar
Xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish xarakteri bo'yicha	Rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar	Salbiy institusional muhit, ta'minotdagi uzilishlar, yangi xizmat texnologiyalari to'g'risidagi axborotlarga ega emaslik yoki axborotning o'z vaqtida olinmasligi, xizmatlar sohasi boshqaruv tizimining markazlashmaganligi, xizmatlarni yaratish va yetkazib berish jarayoni o'rtasidagi vaqt bo'yicha uzilishlar, xizmatlar sohasining raqamli texnologiyalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi
	Rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi omillar	Davlatning xizmatlar sohasini rivojlantirish siyosati, qulay institusional muhit, xizmatlar sohasiga malakali kadrlar tayyorlash

Ishlab chiqilgan tasnifda xalqaro darajadan boshlab muayyan xizmat korxonasi darajasiga qadar bo'lgan ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning tavsifikeltirilgan.

Xizmat ko'rsatish korxonasi innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omil sifatida korxonaning o'lchami (katta-kichikligi) ham tadqiqotchilar, Kemp va Kleinknecht va Monhenlar, tomonidan o'rganib chiqilgan chunki innovatsiya imkoniyati tashkilotning hajmiga mos holda oshib boradi. Bu tadqiqotlar natijasida kichik korxonalarda innovatsiya kamroq amalga oshirilishi hamda innovatsiyaning korxonada daromadiga ta'siri kattaroq tashkilotlarda ko'rinarli, sezilarli darajada bo'lishi xulosa qilingan (3). Kotter va Heskettning tadqiqoti esa tashkilotdagi korporativ madaniyat omilining innovatsiya jarayoniga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilib, xulosasiga ko'ra doimiy izlanishga qaratilgan korporativ madaniyat bugungi dinamik raqobat muhitida korxonani uzoq muddatli innovatsiyasiga sabab bo'ladi bunday innovatsiya tadbirkorlarga ham ichki va tashqi foyda keltiradi (4). Innovatsion resurslarni munosib monitoring qilish tizimining mavjud emasligi innovatsion loyiha tahlilini cheklab, uni optimal amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Buni 2015 yilda tadqiqotchilar Durst, Mention, & Poutanenlar o'tkazgan tadqiqot tasdiqlaydi⁶⁶. Innovatsiya faoliyati monitoringini baholashga qaratilgan tadqiqotlarni o'rganish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsiya jarayoni monitoringi bir necha taraflama olib boriladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish va sohada boshqaruv samaradorligini oshirishda institusional muhitni rivojlantirish omili ham alohida e'tiborga olinishi lozim. Bu omilning xizmat korxonalarining rivojlanishidagi o'rni muhim hisoblanadi, chunki institusional tuzilmalarning faoliyati davlat tashkilotlaritomonidan bir qator huquqiy va me'yoriy hujjatlar orqali qat'iy tartibga solinadi. Ko'rsatib o'tilgan omil guruhlarining birortasiga tegishli bo'lmagan va xizmatlarni yaratish va yetkazib berish jarayoniga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega omillar ham mavjud. Bu amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga, yaratish va yetkazib berish davridagi noaniqliklarga, infratuzilma va texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligiga bog'liq bo'lmagan boshqa omillardir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muallif izlanishlari asosida tayyorlangan.
2. A. Yulchiyev, J. G'ofurov. Turizm sohasida xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi omillarning sabab oqibat bog'lanishlari tahlili. Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. 1-jild, 6-son, part 2, 78-79 b.
3. Kemp, R. G. M., Folkeringa, M., De Jong, J. P. J., & Wubben, E. F. M. (2003). Innovation and firm performance Research report n. H200207, Scientific analysis of entrepreneurship and SMEs.
4. Kotter, J., & Heskett, J. (1992). Corporate culture and performance. New York: Free Press.

